

KORRUPSIYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA HISSIY MANIPULYATSIYA MEXANIZMLARI: HONEY TRAP FENOMENINING KRIMINOLOGIK TAHLILI

Ismatullayeva Madina Xayriddin qizi

Jamoat Xavfsizligi Universiteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20792824>

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsion xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hamda hissiy manipulyatsiya mexanizmlarining kriminologik jihatlari Honey Trap fenomeni misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shaxsning hissiy zaifligi, ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari, mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishga moyilligi va tashqi manipulyativ ta'sirlarga beriluvchanligi korrupsion xatti-harakatlarning muhim determinantlari sifatida o'rganildi. Honey Trap texnologiyasining mohiyati, uning korrupsion munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni hamda sextortion bilan bog'liq jihatlari xalqaro tajriba va kriminologik nazariyalar asosida yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy choralar bilan bir qatorda psixologik profilaktika, axloqiy immunitetni shakllantirish va hissiy manipulyatsiyalardan himoyalash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, Honey Trap, hissiy manipulyatsiya, psixologik omillar, sextortion, kriminologiya, viktimologiya, korrupsion xulq-atvor, profilaktika.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ КОРРУПЦИОННОГО ПОВЕДЕНИЯ И МЕХАНИЗМЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ МАНИПУЛЯЦИИ: КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА «HONEY TRAP»

Аннотация. В данной статье анализируются криминологические аспекты психологических факторов и механизмов эмоциональной манипуляции, способствующих формированию коррупционного поведения, на примере феномена Honey Trap.

Исследуются эмоциональная уязвимость личности, социально-психологические потребности, склонность к использованию должностных полномочий в личных интересах и подверженность внешнему манипулятивному воздействию как важные детерминанты коррупционного поведения. Раскрываются сущность технологии Honey Trap, её роль в формировании коррупционных отношений, а также связь с явлением sextortion на основе международного опыта и криминологических теорий. Сделан вывод о том, что наряду с правовыми мерами важное значение в предупреждении коррупции имеют психологическая профилактика, формирование нравственного иммунитета и развитие навыков противодействия эмоциональным манипуляциям.

Ключевые слова: коррупция, Honey Trap, эмоциональная манипуляция, психологические факторы, sextortion, криминология, виктимология, коррупционное поведение, профилактика.

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF CORRUPT BEHAVIOR AND EMOTIONAL MANIPULATION MECHANISMS: A CRIMINOLOGICAL ANALYSIS OF THE HONEY TRAP PHENOMENON

Abstract. This article examines the criminological aspects of psychological factors and emotional manipulation mechanisms contributing to corrupt behavior through the example of the Honey Trap phenomenon. The study explores emotional vulnerability, socio-psychological needs, the tendency to misuse official authority for personal gain, and susceptibility to external manipulation as key determinants of corruption.

The nature of the Honey Trap technique, its role in facilitating corrupt relationships, and its connection with sextortion are analyzed through international practices and criminological theories. The findings indicate that, in addition to legal measures, psychological prevention, the development of moral resilience, and skills to resist emotional manipulation are essential components of anti-corruption efforts.

Keywords: corruption, Honey Trap, emotional manipulation, psychological factors, sextortion, criminology, victimology, corrupt behavior, prevention.

KIRISH (INTRODUCTION)

Korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi, davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiruvchi, iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'luvchi hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini susaytiruvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi. So'nggi yillarda korrupsiyani o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ushbu hodisaning nafaqat huquqiy va iqtisodiy, balki psixologik hamda kriminologik determinantlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki korrupsion xatti-harakatlarning yuzaga kelishi ko'pincha shaxsning ichki motivlari, hissiy ehtiyojlari, axloqiy qarashlari va tashqi manipulyativ ta'sirlarga munosabati bilan chambarchas bog'liqdir.

Jahon miqyosida korrupsiya muammosi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tashabbuslari doirasida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, har yili global iqtisodiyotda trillionlab AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar korrupsion sxemalar natijasida noqonuniy aylanmaga jalb qilinadi. Korrupsiyaning iqtisodiy oqibatlarini bilan bir qatorda uning ijtimoiy va ma'naviy zararlarining ham ortib borayotgani kuzatilmoqda. UNODC ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya va poraxo'rlik natijasida jahon iqtisodiyoti har yili qariyb 1 trillion AQSh dollari miqdorida pora to'lovlari hamda 2,6 trillion AQSh dollariga yaqin iqtisodiy yo'qotishlarga duch keladi. Bu ko'rsatkich global yalpi ichki mahsulotning taxminan 5 foiziga teng bo'lib, korrupsiyaning iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid solayotganligini ko'rsatadi [1].

Xususan, korrupsiya davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligiga putur yetkazib, qonun ustuvorligi tamoyillarining zaiflashishiga olib keladi.

An'anaviy ravishda korrupsiyaning asosiy omili sifatida moddiy manfaatdorlik va iqtisodiy rag'batlar ko'rib kelingan bo'lsa-da, zamonaviy kriminologik tadqiqotlar korrupsion xatti-harakatlarning shakllanishida psixologik omillar ham muhim o'rin tutishini ko'rsatmoqda.

Xususan, mansab vakolatiga ega shaxslarning e'tirofga bo'lgan ehtiyoji, hissiy qoniqmaslik, yolg'izlik, o'ziga ortiqcha ishonch, hokimiyat hissidan zavqlanish, shaxsiy manfaatlarni ustuvor qo'yish kabi psixologik holatlar korrupsion xavflarni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan korrupsiyani faqat iqtisodiy yoki huquqiy hodisa sifatida emas, balki inson psixologiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

So'nggi yillarda korrupsion munosabatlarni shakllantirish va yashirishda hissiy manipulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish holatlari tobora ko'proq uchramoqda. Shunday mexanizmlardan biri sifatida xalqaro amaliyotda "Honey Trap" (asal tuzog'i) fenomeni alohida e'tibor qozongan [2]. Mazkur tushuncha shaxsning romantik qiziqishlari, hissiy ehtiyojlari yoki jinsiy moyilliklaridan foydalanish orqali unga ta'sir ko'rsatish, ishonch qozonish, maxfiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish, shantaj qilish yoki muayyan qarorlar qabul qilishga undash usullarini ifodalaydi.

Dastlab razvedka va kontrazvedka faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ushbu usul bugungi kunda korrupsion munosabatlar, kiberjinoyatchilik, moliyaviy firibgarlik va sextortion kabi hodisalar bilan ham uzviy bog'lanib bormoqda.

Kriminologik nuqtai nazardan Honey Trap fenomeni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u korrupsion xatti-harakatlarning shakllanishida hissiy manipulyatsiyaning rolini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmida shaxsning huquqiy ongiga emas, balki hissiyotlari va psixologik zaifliklariga ta'sir qilinadi. Natijada shaxs o'z harakatlarining noqonuniy oqibatlarini anglagan holda ham manipulyativ ta'sir ostida korrupsion munosabatlarga kirishishi mumkin.

Shu jihatdan Honey Trap fenomeni korrupsiyaning psixologik determinantlarini o'rganish uchun muhim ilmiy platforma vazifasini bajaradi.

Korrupsiyani psixologik omillar orqali tushuntirishda bir qator kriminologik nazariyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, E. Sutherlandning differensial assotsiatsiya nazariyasiga ko'ra, noqonuniy xulq-atvor ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'rganiladi. R. Mertonning anomiya nazariyasi esa shaxsning maqsad va imkoniyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik sharoitida noqonuniy vositalarga murojaat qilish ehtimoli ortishini ta'kidlaydi. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi korrupsion xatti-harakatlar kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanishini asoslaydi.

Ushbu nazariyalar Honey Trap fenomenida kuzatiladigan hissiy bog'liqlik, ijtimoiy ta'sir va manipulyatsiya jarayonlarini tushuntirishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda korrupsiya global tahdidlardan biri hisoblanib, unga qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda psixologik profilaktika choralarining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3]. Ayniqsa, davlat xizmatchilari va mas'ul mansabdor shaxslarning hissiy manipulyatsiyalarga nisbatan barqarorligini shakllantirish, axloqiy immunitetini mustahkamlash hamda psixologik xavflar bo'yicha xabardorligini oshirish korrupsiyaning yangi va yashirin shakllarining oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni Honey Trap fenomeni misolida kriminologik jihatdan tahlil qilish, hissiy manipulyatsiya mexanizmlarining korrupsion xatti-harakatlar shakllanishidagi o'rnini aniqlash hamda ushbu hodisaning oldini olishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda korrupsiya muammosi an'anaviy iqtisodiy va huquqiy yondashuvlardan farqli ravishda hissiy manipulyatsiya va psixologik ta'sir mexanizmlari orqali tahlil qilinadi, Honey Trap fenomenining korrupsion munosabatlar bilan bog'liqligi kriminologik nuqtai nazardan kompleks o'rganiladi hamda korrupsiyaga qarshi profilaktikaning psixologik yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Korrupsiya fenomeni ijtimoiy fanlar tizimida eng ko'p tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Biroq mazkur hodisaning psixologik determinantlari va hissiy manipulyatsiya mexanizmlari bilan bog'liq jihatlari nisbatan kam o'rganilgan yo'nalishlardan sanaladi. Shu sababli ushbu tadqiqot doirasida korrupsiya, psixologik manipulyatsiya, Honey Trap va sextortion hodisalariga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Korrupsiya nazariyasining zamonaviy rivojlanishida amerikalik olim Susan Rose-Ackermannning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi [4]. U korrupsiyani davlat hokimiyati vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish sifatida tavsiflab, korrupsion xatti-harakatlarning shakllanishida institutsional nazoratning zaifligi va individual manfaatdorlikning

kuchliligi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, korrupsiyani faqat huquqiy sanksiyalar orqali kamaytirish mumkin emas, balki shaxsning axloqiy qadriyatlari va qaror qabul qilish mexanizmlarini ham o'rganish lozim.

Robert Klitgaard korrupsiyani quyidagi mashhur formula orqali izohlaydi: "**Korrupsiya = Monopoliya + Vakolat erkinligi – Hisobdorlik**". Ushbu yondashuv korrupsiyaning institutsional ildizlarini tushuntirib bersa-da, korrupsion qaror qabul qilishning psixologik jihatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotchilar korrupsiyaning tashkiliy va iqtisodiy omillari bilan bir qatorda inson psixologiyasiga ham murojaat qila boshladilar [5].

Johann Graf Lambsdorff korrupsiyani ijtimoiy ishonch va axloqiy me'yorlar inqirozi bilan bog'laydi [6]. Uning tadqiqotlariga ko'ra, jamiyatda ijtimoiy kapital darajasining pasayishi korrupsion xatti-harakatlarga nisbatan tolerantlikni kuchaytiradi. Mazkur yondashuv Honey Trap fenomenini tushuntirishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki bunday manipulyatsiya mexanizmlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan shaxsning axloqiy barqarorligi va o'zini nazorat qilish darajasiga bog'liq.

Korrupsiyaning psixologik determinantlarini tushuntirishda kriminologik nazariyalar alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. E. Sutherland tomonidan ilgari surilgan differensial assotsiatsiya nazariyasiga ko'ra, noqonuniy xulq-atvor boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida o'rganiladi [7]. Ushbu nazariya Honey Trap jarayonida shakllanadigan ishonchli va yaqin munosabatlarning korrupsion qarorlar qabul qilinishiga ta'sirini tushuntirish imkonini beradi.

Robert Mertonning anomiya nazariyasida esa jamiyat tomonidan targ'ib qilinayotgan maqsadlar va ularga qonuniy yo'llar bilan erishish imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik noqonuniy xulq-atvorning manbai sifatida talqin qilinadi [8]. Mazkur yondashuv korrupsion harakatlarning motivatsion asoslarini ochib berishda muhim nazariy vosita hisoblanadi. Honey Trap holatlarida ham shaxsning mansab, boylik yoki ijtimoiy maqomga oid ehtiyojlari manipulyatsiya ob'ektiga aylanishi mumkin.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi korrupsion xatti-harakatlar kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy rag'batlantirish orqali shakllanishini asoslaydi. Olim tomonidan ishlab chiqilgan "moral disengagement" konsepsiyasi noqonuniy harakatlarni ichki jihatdan oqlash mexanizmlarini tushuntirib beradi [9]. Honey Trap jarayonida ham shaxs ko'pincha o'z harakatlarini korrupsiya sifatida emas, balki shaxsiy munosabatlar yoki hissiy bog'liqlik natijasi sifatida qabul qiladi.

T. Hirschi tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy nazorat nazariyasiga ko'ra, shaxsning oila, jamiyat va ijtimoiy institutlar bilan mustahkam aloqalari noqonuniy xatti-harakatlarning oldini oluvchi omillar hisoblanadi [10]. Mazkur nazariya Honey Trap qurbonlari orasida ijtimoiy izolyatsiyaga moyil, hissiy jihatdan zaif va yolg'izlikni boshdan kechirayotgan shaxslarning ko'proq uchrashini izohlash imkonini beradi.

Psixologik manipulyatsiya masalalarini o'rganishda Robert Cialdinining ta'sir o'tkazish nazariyasi muhim manbalardan biri hisoblanadi [11]. Olim odamlar qaror qabul qilishida o'zaro javob qaytarish, yoqtirish, majburiyat, ijtimoiy tasdiqlash va avtoritet tamoyillari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Honey Trap texnologiyasi aynan mazkur psixologik mexanizmlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, unda ishonch va hissiy yaqinlik orqali shaxsning qaror qabul qilish erkinligi cheklanadi.

Honey Trap fenomenining o'zi dastlab razvedka va kontrrazvedka faoliyati doirasida o'rganilgan [12]. Ochiq ilmiy manbalarda ushbu usul romantik yoki jinsiy qiziqishlardan foydalanish orqali ma'lumot olish, ta'sir o'tkazish va shantaj qilish vositasi sifatida tavsiflanadi.

So'nggi yillarda esa ushbu fenomenning qo'llanish sohasi kengayib, korrupsion munosabatlar, kiberjinoyatchilik, moliyaviy firibgarlik va sextortion bilan bog'liq holatlarda ham uchray boshladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sextortion korrupsiyaning nisbatan yangi va yashirin shakllaridan biri sifatida baholanmoqda. International Association of Women Judges tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko'ra [13], sextortion poraning o'ziga xos shakli bo'lib, bunda moddiy manfaat o'rniga jinsiy xarakterdagi talablar ilgari suriladi. Shu sababli sextortion korrupsiyaning nomoddiy manfaatlarga asoslangan ko'rinishi sifatida xalqaro huquqiy va kriminologik adabiyotlarda alohida tadqiq etilmoqda [14].

Xususan, International Association of Women Judges tomonidan sextortion "mansab vakolatidan foydalanib, pora sifatida jinsiy xizmat talab qilish" holati sifatida tavsiflangan.

Mazkur yondashuv korrupsiya tushunchasining faqat moddiy manfaat bilan cheklanmasligini, ayrim hollarda nomoddiy manfaatlarni ham korrupsion munosabatlarning predmeti bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili Honey Trap fenomenining asosan razvedka faoliyati, kiberxavfsizlik va firibgarlik kontekstida o'rganilganligini ko'rsatdi. Uning korrupsiyani keltirib chiqaruvchi psixologik omillar bilan bog'liqligi, hissiy manipulyatsiya vositasi sifatida korrupsion xatti-harakatlarga ta'siri hamda sextortion bilan o'zaro aloqadorligi kriminologik nuqtai nazardan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Honey Trap mexanizmining korrupsion qarorlar qabul qilinishiga ko'rsatadigan psixologik ta'siri bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar soni cheklangan.

Demak, mavjud ilmiy manbalar korrupsiya va Honey Trap fenomenini alohida-alohida o'rganishga qaratilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro bog'liqligi, hissiy manipulyatsiyaning korrupsion xulq-atvor shakllanishidagi roli hamda mazkur hodisaning kriminologik determinantlari masalasi hali ham chuqur tadqiq etilishi lozim bo'lgan ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA (METHODOLOGY)

Mazkur tadqiqot korrupsiyani keltirib chiqaruvchi psixologik omillar hamda Honey Trap fenomenining hissiy manipulyatsiya mexanizmlari orqali korrupsion xulq-atvor shakllanishiga ko'rsatadigan ta'sirini kriminologik jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot davomida umumilmiy va maxsus ilmiy bilish usullarining kompleksidan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik bilish usuli tashkil etadi. Ushbu yondashuv yordamida korrupsiya hodisasi statik emas, balki doimiy rivojlanib boruvchi, yangi ko'rinish va shakllarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida tahlil qilindi. Xususan, korrupsiyaning an'anaviy moddiy manfaatlarga asoslangan shakllaridan hissiy manipulyatsiya va sextortion kabi zamonaviy ko'rinishlarga transformatsiyalanish jarayonlari o'rganildi.

Tadqiqotda tizimli tahlil usulidan foydalanilib, korrupsiya, psixologik determinantlar, hissiy manipulyatsiya, Honey Trap va sextortion tushunchalari o'zaro bog'liq elementlardan iborat yagona tizim sifatida ko'rib chiqildi. Mazkur usul orqali shaxsning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhiti va korrupsion xatti-harakatlari o'rtasidagi sababiy bog'liqliklar aniqlashtirildi.

Formal-mantiqiy tahlil usuli yordamida korrupsiya, manipulyatsiya, Honey Trap va sextortion tushunchalarining nazariy mazmuni o'rganildi, ilmiy adabiyotlarda uchraydigan turli yondashuvlar o'zaro taqqoslandi hamda tadqiqotning konseptual apparati shakllantirildi. Ushbu usul mavjud ilmiy qarashlar o'rtasidagi umumiylik va tafovutlarni aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli asosida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hujjatlar, xorijiy davlatlarning ilmiy yondashuvlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar o'rganildi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi [14], Transparency International [15], OECD [16], UNODC [17] hamda International Association of Women Judges tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar va ilmiy hisobotlar tahlil qilindi. Ushbu usul Honey Trap va sextortion hodisalarining xalqaro miqyosdagi talqinlarini aniqlash hamda ularni korrupsiyaning psixologik determinantlari bilan bog'lash imkonini berdi.

Kontent-tahlil usuli orqali korrupsiya, hissiy manipulyatsiya va Honey Trap fenomeniga oid milliy va xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, tahliliy hisobotlar hamda xalqaro tashkilotlar materiallari o'rganildi. Tahlil jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalardagi asosiy konsepsiyalar, nazariy qarashlar va empirik natijalar tizimlashtirildi. Mazkur usul tadqiqot muammosining o'rganilish darajasini aniqlash va ilmiy bo'shliqni belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Kriminologik tahlil usuli yordamida Honey Trap mexanizmining korrupsion xulq-atvor shakllanishidagi o'rni, shaxsning viktimologik zaifliklari va korrupsiyaviy xavf omillari o'rganildi. Bunda korrupsion munosabatlarning yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi motivatsion, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida kuzatish va umumlashtirish usullaridan ham foydalanildi. Xususan, ochiq manbalarda e'lon qilingan Honey Trap va sextortion bilan bog'liq holatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan keltirilgan amaliy misollar hamda korrupsiyaga oid zamonaviy tadqiqotlar o'rganilib, ularning umumiy qonuniyatlari aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv hissiy manipulyatsiya va korrupsion xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlikni kriminologik jihatdan asoslash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda kriminologik prognozlash elementlaridan foydalanilib, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida Honey Trap va sextortion hodisalarining yangi ko'rinishlari yuzaga kelishi mumkinligi baholandi. Ushbu yondashuv korrupsiyaning yashirin va noan'anaviy shakllariga qarshi profilaktik choralarni takomillashtirish istiqbollari aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik bazasini korrupsiyaga qarshi kurashish, psixologik manipulyatsiya, Honey Trap va sextortion muammolariga oid milliy hamda xorijiy ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va tahliliy materiallar tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar ilmiy xolislik, obyektivlik va tizimlilik tamoyillari asosida tahlil qilinib, umumlashtirildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot predmetini kompleks o'rganish, Honey Trap fenomenining korrupsion xulq-atvor shakllanishidagi psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Honey Trap fenomeni korrupsiyaning an'anaviy iqtisodiy determinantlaridan farqli ravishda shaxsning hissiy va psixologik zaifliklaridan

foydalanishga asoslangan murakkab manipulyativ mexanizm hisoblanadi. Mazkur fenomen korrupsion munosabatlarning shakllanishida moddiy manfaat omilidan tashqari psixologik ta'sir vositalarining ham muhim ahamiyat kasb etishini namoyon etadi.

Tahlillar natijasida Honey Trap mexanizmi orqali korrupsion xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi bir qator psixologik determinantlar aniqlandi. Birinchi determinant sifatida hissiy qoniqmaslik va e'tirofga bo'lgan ehtiyoj ajralib turadi. Psixologiya fanida insonning ijtimoiy e'tirof va hissiy qo'llab-quvvatlanishga bo'lgan ehtiyoji uning fundamental ehtiyojlaridan biri sifatida baholanadi. Mansabdor shaxs yoki mas'ul xodimda ushbu ehtiyojning qondirilmaligi tashqi manipulyativ ta'sirlarga nisbatan sezgirlikni kuchaytiradi. Honey Trap jarayonida aynan shu zaiflikdan foydalanilib, shaxs bilan hissiy yaqinlik o'rnatiladi va natijada uning qaror qabul qilishdagi mustaqilligi bosqichma-bosqich susayadi.

Ikkinchi determinant sifatida shaxsning o'ziga ortiqcha ishonishi va xavflarni yetarli baholay olmasligi namoyon bo'ladi. Kriminologik tadqiqotlar korrupsion jinoyatlarni sodir etgan ayrim mansabdor shaxslar o'zlarining ijtimoiy mavqei yoki vakolatlariga haddan tashqari tayanishi sababli nazorat va javobgarlik xavfini past baholashlarini ko'rsatadi. Honey Trap mexanizmlarida ham shaxs ko'pincha vaziyatni nazorat qilayotganiga ishonadi, biroq amalda manipulyatsiya subyektiga aylanadi.

Uchinchi determinant sifatida axloqiy neytrallash mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan "moral disengagement" konsepsiyasiga muvofiq [18], shaxs noqonuniy yoki axloqan nomaqbul harakatlarni ichki jihatdan oqlashga moyil bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Honey Trap ta'siriga tushgan shaxslar o'z harakatlarini korrupsion faoliyat sifatida emas, balki shaxsiy munosabatlar yoki hissiy bog'liqlik natijasi sifatida qabul qilishga intiladi. Bu esa korrupsion xulq-atvorning psixologik legitimatsiyasiga olib keladi.

To'rtinchi determinant sifatida yolg'izlik va ijtimoiy izolyatsiya omili qayd etildi.

Hirschning ijtimoiy nazorat nazariyasiga ko'ra [19], oila va jamiyat bilan mustahkam aloqalar noqonuniy xulq-atvorning oldini oluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy aloqalari zaiflashgan, hissiy jihatdan yolg'izlikni boshdan kechirayotgan shaxslar Honey Trap manipulyatsiyalariga nisbatan ko'proq moyillik namoyon etadi.

O'rganishlar natijasida Honey Trap fenomenining korrupsion munosabatlarni shakllantirish mexanizmi to'rt bosqichdan iborat ekanligi aniqlandi. Birinchi bosqichda nishon tanlanadi va uning psixologik portreti shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda ishonch va hissiy yaqinlik hosil qilinadi. Uchinchi bosqichda hissiy bog'liqlik kuchaytiriladi hamda manipulyatsiya uchun qulay sharoit yaratiladi. To'rtinchi bosqichda esa shaxsdan ma'lumot olish, muayyan qaror qabul qilishga undash, noqonuniy xizmat ko'rsatishga erishish yoki keyinchalik shantaj qilish uchun foydalaniladi. Mazkur model Honey Trap fenomenining tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan psixologik ta'sir texnologiyasi ekanligini ko'rsatadi. Honey Trap texnologiyasining amaliy ko'rinishlari xalqaro tajribada ham kuzatilgan.

Jumladan, ayrim davlatlarda yuqori lavozimli mansabdor shaxslarning romantik yoki jinsiy xarakterdagi munosabatlar orqali maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yishi yoki noqonuniy qarorlar qabul qilishga undalishi bilan bog'liq holatlar qayd etilgan. Bunday vaziyatlar Honey Trap mexanizmining nafaqat razvedka faoliyatida, balki korrupsion xavflar shakllanishida ham muhim kriminogen omil bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi [22].

Tadqiqot davomida Honey Trap va sextortion hodisalari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi ham aniqlandi. Xalqaro amaliyotda sextortion korrupsiyaning nisbatan yangi shakli sifatida e'tirof etilib [20], unda moddiy pora o'rnini jinsiy xarakterdagi talablar egallaydi.

Bunday holatlarda mansab vakolatlari shaxsiy ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylanadi.

Shu jihatdan sextortion korrupsiyaning nomoddiy manfaatlarga asoslangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Honey Trap esa ayrim holatlarda aynan sextortion uchun qulay sharoit yaratadigan psixologik mexanizm vazifasini bajarishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari korrupsiyaning global miqyosda hanuz jiddiy muammo bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Transparency International tomonidan e'lon qilingan 2025-yilgi Corruption Perceptions Index natijalariga ko'ra [21], dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 42 ballni tashkil etgan bo'lib, baholangan 182 ta davlat va hududlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'i 50 balldan past natija qayd etgan [23]. Mazkur holat korrupsiya global boshqaruv tizimlari, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy ishonch uchun jiddiy tahdid bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, hisobotda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi korrupsiya darajasi nisbatan yuqori hududlardan biri sifatida qayd etilgan [22].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaning zamonaviy ko'rinishlari tobora murakkablashib bormoqda. Agar XX asrda korrupsion munosabatlar asosan moddiy manfaatlar bilan bog'langan bo'lsa, XXI asrda psixologik ta'sir, ijtimoiy manipulyatsiya va hissiy bog'liqlik elementlari ham korrupsion xavflarning tarkibiy qismiga aylanmoqda [24]. Honey Trap fenomenining aynan shu jihati uni klassik poraxo'rlik holatlaridan farqlaydi. Bunda korrupsion qaror qabul qilish jarayonining markazida iqtisodiy manfaat emas, balki shaxsning hissiy holati, ehtiyojlari va psixologik zaifliklari turadi.

Tadqiqot natijalari Honey Trap mexanizmini korrupsion xulq-atvorning viktimologik modeli sifatida talqin qilish imkonini berdi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan mazkur modelga ko'ra, korrupsion xavfning shakllanishi uchta o'zaro bog'liq elementning mavjudligiga bog'liq: birinchisi — shaxsning psixologik zaifligi; ikkinchisi — manipulyatorning maqsadli ta'siri; uchinchisi — nazorat mexanizmlarining sustligi.

1-rasmga qarang...



Honey trap fenomenining korrupsion xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi viktimologik-psixologik modeli (muallif ishlanmasi)

Ushbu uch omil bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan sharoitda Honey Trap korrupsion qarorlar qabul qilinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, olib borilgan nazariy tahlillar Honey Trap fenomenini kriminologiyada mustaqil "hissiy-viktimologik korrupsiya modeli" sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatdi.

Chunki mavjud ilmiy adabiyotlarda korrupsiya asosan iqtisodiy manfaatlar va institutsional omillar orqali izohlangan bo'lsa, hissiy manipulyatsiya mexanizmlarining korrupsion xulq-atvor shakllanishidagi o'zni yetarli darajada o'rganilmagan. O'zbekiston misolida ham korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarini takomillashtirishda psixologik profilaktika masalasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning korrupsiyani qabul qilish indeksi so'nggi yillarda ayrim ijobiy o'zgarishlarni namoyon etgan bo'lsa-da, korrupsion xavflarni kamaytirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy va institutsional islohotlar bilan bir qatorda inson omili, psixologik xavfsizlik va hissiy manipulyatsiyalardan himoyalaniş mexanizmlarini ham rivojlantirish zarur.

Xalqaro tajriba tahlili hissiy manipulyatsiya va korrupsion xavflar o'rtasidagi bog'liqlik tobora kuchayib borayotganligini ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi Honey Trap usullarining geografik va ijtimoiy chegaralarini sezilarli darajada kengaytirdi. Endilikda manipulyatsiya jarayoni bevosita uchrashuvlarsiz ham amalga oshirilishi, soxta profillar, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan tasvirlar va onlayn muloqot vositalari orqali davom ettirilishi mumkin. Bu esa korrupsiyaning psixologik determinantlarini o'rganishda yangi ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundaki, korrupsion xulq-atvorning shakllanishida iqtisodiy manfaat omili har doim ham hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Ayrim hollarda hissiy bog'liqlik, romantik qiziqish, e'tirofga bo'lgan ehtiyoj yoki shaxsiy munosabatlarni saqlab qolishga intilish moddiy manfaatdan kuchliroq motivatsion omilga aylanishi mumkin. Ushbu holat korrupsiyani tushuntirishda an'anaviy iqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda psixologik va viktimologik yondashuvlarni ham keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Muallifning fikricha, Honey Trap fenomenini korrupsiyaning bevosita shakli sifatida emas, balki korrupsion xulq-atvorni shakllantiruvchi kriminogen psixologik omil sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur mexanizm korrupsiyaning sababini emas, balki unga olib boruvchi psixologik sharoit va motivatsion muhitni yaratadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarida huquqiy javobgarlik choralaridan tashqari psixologik profilaktika, axloqiy immunitetni mustahkamlash va hissiy manipulyatsiyalardan himoyalaniş ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga ham ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Olib borilgan tahlillar asosida Honey Trap fenomeni korrupsiyani keltirib chiqaruvchi psixologik determinantlar tizimida mustaqil kriminogen omil sifatida baholanishi mumkinligi haqidagi ilmiy xulosaga kelindi. Mazkur holat korrupsiyaning zamonaviy shakllarini o'rganishda yangi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

XULOSA (CONCLUSION)

Muallifning fikricha, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida psixologik xavfsizlik konsepsiyasini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, davlat xizmatchilarining hissiy manipulyatsiyalarga moyillik darajasini baholash, psixologik risklarni aniqlash va muntazam treninglar tashkil etish korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari korrupsiya fenomenining shakllanishida iqtisodiy va huquqiy omillar bilan bir qatorda psixologik determinantlar ham muhim o'rin egallashini ko'rsatdi. Honey Trap fenomenining kriminologik tahlili shuni tasdiqladiki, ayrim hollarda hissiy manipulyatsiya vositalari korrupsion xulq-atvorning yuzaga kelishida moddiy manfaat omilidan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchiidan, Honey Trap fenomeni shaxsning hissiy ehtiyojlari, romantik qiziqishlari va psixologik zaifliklaridan foydalanishga asoslangan murakkab manipulyativ mexanizm bo'lib [25], u korrupsion xulq-atvor shakllanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi kriminogen omil sifatida namoyon bo'ladi [26].

Ikkinchidan, korrupsion xatti-harakatlarning yuzaga kelishida hissiy qoniqmaslik, e'tirofga bo'lgan ehtiyoj, yolg'izlik, ijtimoiy izolyatsiya, o'ziga ortiqcha ishonch hamda axloqiy neytrallash mexanizmlari muhim psixologik determinantlar hisoblanadi. Mazkur omillar Honey Trap texnologiyasining samaradorligini oshiruvchi asosiy shart-sharoitlarni tashkil etadi.

Uchinchidan, Honey Trap mexanizmi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan psixologik ta'sir tizimi bo'lib, u nishonni o'rganish, ishonch hosil qilish, hissiy bog'liqlik yaratish va manipulyativ ta'sir ko'rsatish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Mazkur jarayon natijasida shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati susayadi va noqonuniy harakatlarga moyilligi ortadi.

To'rtinchidan, Honey Trap va sextortion hodisalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, ayrim hollarda Honey Trap sextortionning shakllanishi uchun psixologik zamin yaratadi.

Bu esa korrupsiyaning nafaqat moddiy, balki nomoddiy manfaatlar bilan bog'liq shakllarini ham chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi Honey Trap fenomenining yangi ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda. Soxta akkauntlar, onlayn tanishuv platformalari va sun'iy intellekt vositalari orqali amalga oshirilayotgan manipulyatsiyalar korrupsion xavflarning yangi manbalaridan biriga aylanmoqda.

Oltinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat huquqiy javobgarlik choralariga tayanish yetarli emas. Mazkur jarayonda shaxsning psixologik barqarorligini oshirish, axloqiy immunitetini mustahkamlash va hissiy manipulyatsiyalarga qarshi qarshilik ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish muhim profilaktik ahamiyat kasb etadi.

Yettinchidan, korrupsiyaning zamonaviy shakllarini o'rganishda viktimologik yondashuvdan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir [28]. Chunki ayrim hollarda korrupsion munosabatlarning shakllanishida jinoyatchining faolligi bilan bir qatorda jabrlanuvchining psixologik zaifligi ham muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun Honey Trap, sextortion va psixologik manipulyatsiya xavflariga bag'ishlangan maxsus o'quv dasturlarini joriy etish [27];
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida psixologik profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish;
- davlat organlarida axloqiy barqarorlik va korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan treninglar sonini oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarining yuridik, kriminologiya va davlat boshqaruvi yo'nalishlarida hissiy manipulyatsiya va korrupsiya psixologiyasi bo'yicha maxsus modullarni joriy etish;
- Honey Trap va sextortion hodisalarining kriminologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan kompleks empirik tadqiqotlarni amalga oshirish [29].

Umuman olganda, Honey Trap fenomeni korrupsiyaning zamonaviy psixologik determinantlarini o'rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uning kriminologik jihatdan tadqiq etilishi korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi profilaktik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [30].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. United Nations Office on Drugs and Crime. *United Nations Convention against Corruption (UNCAC)*. URL: unodc.org
2. Christopher Hadnagy. *Social Engineering: The Science of Human Hacking*. Indianapolis: Wiley, 2018.
3. <https://worldbank.org>
4. Rose-Ackerman S. *Corruption and Government: Causes, Consequences and Reform*. Cambridge University Press, 1999.
5. Klitgaard R. *Controlling Corruption*. Berkeley: University of California Press, 1988.
6. Lambsdorff J.G. *The Institutional Economics of Corruption and Reform*. Cambridge University Press, 2007.
7. Sutherland E.H. *Principles of Criminology*. Philadelphia, 1947.
8. Merton R.K. *Social Theory and Social Structure*. New York: Free Press, 1968.
9. Bandura A. *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
10. Hirschi T. *Causes of Delinquency*. Berkeley: University of California Press, 1969.
11. Cialdini R. *Influence: The Psychology of Persuasion*. New York: Harper Business, 2021.
12. <https://fbi.gov>
13. <https://iawj.org>
14. unodc.org
15. <https://transparency.org>
16. <https://oecd.org>
17. <https://unodc.org>
18. Bandura A. *Moral Disengagement: How People Do Harm and Live with Themselves*. Worth Publishers, 2016.
19. Hirschi T. *Social Control Theory*. Transaction Publishers, 2002.
20. <https://ibanet.org>
21. <https://transparency.org>
22. <https://transparency.org>
23. <https://transparency.org>
24. <https://interpol.int>
25. <https://undp.org>
26. <https://unesco.org>
27. <https://unodc.org>
28. Karmen A. *Crime Victims: An Introduction to Victimology*. Cengage Learning, 2016.
29. Walters G.D. *Crime in a Psychological Context*. Springer, 2022.
30. <https://anticorruption.uz>